QURG‘OQCHILIK VA SHO‘RLANISH SHAROITIDA YUMSHOQ BUG‘DOY NAMUNALARINING MOSLASHUVI.

Otaxonov Toxirjon Qalandar o‘g‘li

Osiyo xalqaro universiteti- Nazoratchi pedagog

Global iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari, xususan, o‘rtacha yillik haroratning ko‘tarilishi va gidrologik resurslarning kamayishi qishloq xo‘jaligi ekinlari undorligiga jiddiy xavf solmoqda. Birlashgan Milletlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko‘ra, sho‘rlanish va qurg‘oqchilik sababli dunyo bo‘yicha ekin maydonlarining 20% dan ortig‘i har yili turli darajada hosil yo‘qotilishiga uchramoqda. Dunyo va respublika aholisini asosiy oziq-ovqat mahsuloti bo‘lmish g‘alla bilan barqaror ta’minlash qishloq xo‘jaligi fiziologiyasi va seleksiyasi oldida turgan eng dolzarb muammolardan biridir.

O‘zbekistonning quyi Amudaryo mintaqasi, xususan Xorazm viloyati o‘zining keskin kontinental iqlimi, yuqori darajadagi tuproq va grunt suvlarining sho‘rlanganligi hamda yozgi issiq harorat rejimining davomiyligi bilan ajralib turadi. Bu hududda yetishtiriladigan yumshoq bug‘doy (*Triticum aestivum* L.) o‘simliklari bir vaqtning o‘zida ham osmotic (tuzli), ham termik hamda havo va tuproq qurg‘oqchiligi stressiga (kompleks abiotik stress) duch keladi.

Ushbu ekstremal abiotik sharoitda o‘simliklarning moslashuvchanlik mexanizmlarini tushunish faqatgina yakuniy hosildorlikni sanash bilan cheklanib qolmasligi kerak. O‘simlikning feno- va genotipik imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun ularning chuqur fiziologik va biokimyoviy jarayonlarini - xususan, to‘qimalarning suv saqlash qobiliyati, nisbiy suv tutimi, transpiratsiya jadalligi, stomatal o‘tkazuvchanlik hamda fotosintetik pigmentlar barqarorligini baholash talab etiladi. Introduksiya qilingan yumshoq bug‘doy kolleksiya namunalarining Xorazm

sharoitida gida-fiziologik moslashuvchanligini o‘rganish va ularni mahsuldorlik ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish kelajakda resurs tejamkor va stresga chidamli yangi navlarni yaratishda g‘oyat muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga egadir.

Shularni inobatga olgan holda Xorazm viloyatining qurg‘oqchil va tuproq sho‘rlanishi sharoitida ntroduksiya qilingan yumshoq bug‘doy kolleksiya namunalarining suv rejimi, fiziologik-biokimyoviy xususiyatlari va mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini kompleks o‘rganish orqali abiotik stressga chidamli hamda yuqori hosildor boshlang‘ich manbalarni tanlab olish maqsad qilindi.

Tadqiqotda ob’ekti sifatida turli xalqaro seleksiya markazlaridan va respublika genofondidan keltirilgan yumshoq bug‘doyning (*Triticum aestivum* L.) 30 dan ortiq kolleksiya namunalari Xorazm tuproq iqlim sharoitida ekib o’rganish ishlari olib borilmoqda.

Olib borilayotgan tajribalar asosida chetdan keltirilgan yumshoq bug‘doy genotiplarining fisiologik-biokimyoviy adaptatsiya mexanizmlari uch yillik tajribalar asosida har taraflama baholanadi.

Noqulay abiotik omillar ta’siriga chidamli genotiplarni aniqlash orqali seleksiya jarayonini bir necha yilga tezlashtirish va suv resurslari tanqis bo‘lgan hududlarda g‘alla hosildorligini 15-20% ga oshirish imkonini beradi.

Olingan natijalar asosida selektsionerlar uchun Xorazm va quyi Amudaryo mintaqalarida qurg‘oqchilik va sho‘rlanishga chidamli bug‘doy navlarini yaratishda foydalanish uchun eng istiqbolli va barqaror genotip boshlang‘ich manba sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xurramov A.A. Yumshoq bug‘doy nav va namunalarining suv rejimi va abiotik stresslarga chidamlilik ko‘rsatkichlari. Xorazm Ma’mun Akademiyasi Axborotnomasi, 6-1, 2023. 45-49.
2. Ziyayev Z.M., Egamberdiyev F.B., O‘razov A.T. Qurg‘oqchilik va sho‘rlanish sharoitida bug‘doy genotiplarining fiziologik ko‘rsatkichlarini baholash. O‘zbekiston Biologiya Jurnali, 3, 2022. 18-24.
3. Boboyev S. K., Normuratov, U. D. Sho‘rlangan tuproq sharoitida yumshoq bug‘doy (Triticum\ aestivum L.) navlarining fotosintetik pigmentlari dinamikasi. O‘zbekiston Qishloq Xo‘jaligi, 8, 2020. 32-35.

GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING